

**MILLIYLIKNI IFODALOVCHI REALIYA BIRLIKLARI VA ULARNING
TERMIN TUSHUNCHASIDAN FARQLASH MUAMMOLARI****Toshmatova Saida Abdumutalli qizi***PhD student of Namangan State University*Email: toshmatovasaida28@gmail.com**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 10.12.2025**Revised: 11.12.2025**Accepted: 12.12.2025***KALIT SO'ZLAR:***realiya, termin,
konsept, etimologik,
lingvistik, ekvivalent,
funksional, milliy
kolorit.**Ushbu maqolada milliylikni ifoda etuvchi birliklardan hisoblangan realiyalar xususida so'z boradi. Shuningdek, ularni termin tushunchalaridan farqlash masalalari tahlil qilinadi. Realija va termin tushunchalarining struktur-semantik va funksional xususiyatlari qiyosiy asosda ochib beriladi. Tilshunos va tarjimashunos olimlar tomonidan keltirilgan ta'rif va tavsiflar muhokama qilinadi.***Kirish**

Til va madaniyatni o'zaro bog'liqligini o'rganuvchi soha lingvokulturologiya hisoblanadi. Mazkur sohani tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning 90-yillaridan boshlab tadqiq etish boshlangan. Lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalari kesishgan nuqtada vujudga kelgan. Ushbu soha til va madaniyatning o'zaro aloqasi, milliy-madaniyatning tilda aks etishini tadqiq etadi. Tilda aks etgan xalq madaniyatini tadqiq etuvchi lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalaridan biri esa realiyalar hisoblanadi.

XX asrning 50-yillaridan boshlab tildagi milliy-madaniy belgilarga oid izlanishlarga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Realialarga nisbatan milliylikni o'zida aniq va sezilarli

darajada aks ettiruvchi element, milliy koloritni ifodalovchi leksik birliklar sifatida qarash boshlandi. Realiza terminiga dastlabki ta'rif esa K.H.Hendshin tomonidan keltirilgan[1].

Asosiy qism

Kishilik jamiyati rivojlanishining keyingi davrlarida shakllangan realiya tushunchasi madaniyatlar o'rtasidagi farqlar yuzaga kelgan davrlarda vujudga kelgan. "Realia" – "moddiy", "haqiqiy" degan ma'nolarni ifodalab, ularning dastlabki ma'nosi "madaniyatlarning o'ziga xos belgilarini o'zida aks ettiruvchi narsa-buyum haqidagi tushuncha"dir. Lug'aviy ta'riflarga tayansak, realiyalar "har qanday moddiy madaniyat predmeti", "davlat tuzilishi, xalqning tarixi, milliy madaniyati va mazkur til egalarining til aloqalari va ularning turli omillari, va bularning barchasining tilda aks etishi", shuningdek, "nomlash ma'nosiga asos bo'lgan milliy madaniyat predmetlari" hisoblanadi.

L.L.Nelyubin esa izohli tarjimashunoslik lug'atida yanada aniqlashtirilgan ta'rifni taklif etadi[2]. Unga ko'ra, realiyalar boshqa tilda so'zlashuvchilarning amaliy hayotida mavjud bo'lmagan predmetlar, tushunchalar, vaziyatlarni ifodalovchi so'z yoki iboralardir. Shuningdek, ushbu lug'atda realiyalar lingvistika va tarjimashunoslikda o'rganiladigan turli omillar, xususan, muayyan xalqning davlat tuzilishi, ushbu xalqning tarixi va madaniyati, til egalarining tillaro aloqalari va bularning til tizimida aks etish nuqtai nazaridan izohlanadi. Bu ta'rif yanada mukammal ko'rinishga ega bo'lib, realiyalarning lingvistik-struktur jihatlarini tadqiq etishga yordam beradi.

Ko'p hollarda realiya tushunchasini termin tushunchasidan farqlash zarurati mavjud. Bu ikki tushunchalarni bir-biridan farqlash milliy predmetlar va konseptlarni ifodalovchi til birliklarini tizimli ravishda tavsiflash va tasniflash vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Mazkur ikki tushunchalarni farqlay olish, tarjima nazariyasida realiyalarni tarjima qilish va bu jarayonda milliy koloritni saqlashda nazariy ahamiyatga ega masala hisoblanadi.

Mashxur bolgar tarjimon va tarjimashunoslari S.Vlaxov va S.Florinlar o'z asarlarida termin va realiya tushunchalarini farqlash muammolariga birinchilardan bo'lib e'tibor qaratishgan. Ular bu turdagi so'z kategoriyalarining o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilib, quyidagi fikrlarni bildirishadi "Ko'plab leksik birliklardan farqli o'laroq, terminlar aniq belgilangan tushunchalar, predmetlar, hodisalarni ifodalaydi; bu bir ma'noli sinonimlarsiz so'zlar va so'z birikmalari bo'lib, ko'p hollarda o'zga tildan kirgan bo'ladi; ular orasida ma'nosi tarixan chegaralanganlari ham mavjud. Bularning barchasini realiyalar haqida ham aytish mumkin"[3]. Ularning dastlabki ta'riflariga ko'ra, bu tushunchalarning ikkisi ham aniq belgilangan tushuncha, predmet va hodisalarni ifodalaydi, realiya ham termin ham so'z

va soʻz birikmalari shaklida boʻlishi mumkin. Olimlarning mazkur fikrlari esa realiyalar va terminlar oʻrtasidagi oʻxshash jihatlarni ifodalaydi.

Ushbu oʻrinda, N.A. Fenenko esa realiya va termin tushunchalarining talqini bir xil emasligini taʼkidlab, bu holatni turli va koʻpincha bir-biriga zid keladigan taʼriflarning mavjudligi bilan tasdiqlaydi [4].

Realiya va termin tushunchalarini farqlash muammolari bir qator omillar bilan bogʻliq. Ulardan eng muhimi – tahlil qilinayotgan tushunchalarning aniq taʼrifini belgilash muammosidir. Bundan tashqari, termin tushunchasining taʼrifi ancha mustahkamlangan boʻlib, jiddiy kelishmovchiliklarga sabab boʻlmaydi, realiya tushunchasining taʼrifi esa aksincha koʻproq munozarali harakterga ega.

Lingvistik nuqtai nazardan termin – “maxsus sohaga xos boʻlgan, maxsus tushunchalarni aniq ifodalash va maxsus predmetlarni nomlash uchun qabul qilin soʻz yoki soʻz birikmasi”, “kasbiy faoliyatda qabul qilingan va maxsus vaziyatlarda qoʻllanadigan birlik” hisoblanadi.

Koʻplab tilshunoslar va tarjimashunos olimlar tomonidan terminlarning asosiy belgilari sifatida quyidagilar koʻrsatiladi:

- Bir maʼnolilik;
- “maxsus vazifada qoʻllanadigan soʻz” sifatidagi funksional xususiyat;
- Terminologik tizimga mansublik.

S.Vlaxov va S.Florin fikriga koʻra realiyalar va terminlarni farqlash bir nechta mezonlarga asoslanadi va quyida ularning ayrimlarini keltirib oʻtamiz:

1. Terminlarning tildan tilga ekvivalentligi.
2. Realialarning esa ekvivalenti yoʻqligi.
3. Realialarning badiiy adabiyotga, terminlarning esa ilmiy tilga mansubligi.
4. Etimologik xususiyatiga koʻra: realialarning xalq soʻzlari sifatida, ularni yaratgan xalqning turmush tarzi va dunyoqarashi bilan chambarchas bogʻliq holda tabiiy tarzda shakllanishi, terminlarning esa sunʼiy yoʻl bilan yaratilishi.
5. Realialar tilning keng doiradagi soʻzlovchilarga tanish boʻlishi, biroq boshqa tilda uning nomaʼlumligicha qolishi, terminlar esa faqat tor doiradagi mutaxassislar uchun maʼlum boʻlishi.
6. Realialarda milliy va tarixiy koloritning mavjudligi, terminlarda esa bunday kolorit koʻrsatkichlarining yoʻqligi[5].

Yuqoridagi olimlar tomonidan keltirilgan mezonlar realiyalar va termin kategoriyalarini farqlash va ularning batafsil hamda izchil tipologiyasini ishlab chiqish uchun asos boʻladi.

“Realiya” tushunchasini “termin” tushunchasidan farqlab olishimiz uchun realiyalarni ekvivalenti yoʻqligi, milliy-tarixiy kolorit koʻrsatkichiga ega ekanligi, badiiy asarlarda uchrashi, muayyan xalqqagina xos boʻlishi va boshqa xalqlarda mavjud emasligiga eʼtibor qaratishimiz lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, realiya va termin tushunchalari funksional-semantik va qoʻllanish jihatdan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Realialar milliy-madaniy komponentlarni ifodalab, muayyan xalqning turmush tarzi, anʼanalari va tarixiy tajribasi bilan bevosita bogʻliq boʻlsa, terminlar esa ilmiy adabiyotlarga xos boʻlgan aniq tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Handschin Cf. H. Methods of Teaching Modern Languages. – New York, 1924. – P.209;
2. Толковый переводоведческий словарь. – 3-е изд., перераб. / под ред. Л. Л. Нелюбина. – М.: Флинта : Наука, 2003.
3. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М., 2006. – С.21
4. Фененко Н.А. Лингвострановедение: учебное пособие. – М.: Флинта, 2010. – 192 с.
5. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М., 1986.